ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

TURKIY XALQLAR FOLKLORIDA OLQISH VA QARG‘ISHLARNING QIYOSIY TIPOLOGIK TAHLILI

Hulkar Aliqulova[1]

Abstrakt

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida xatti-harakat, ko‘z va so‘z jodusi bilan bog‘liq folklor janrlari ancha katta o‘rin egallaydi. Kinna, badik, olqish, qarg‘ish, afsun, qolaversa, turli-tuman irim-sirimlar bilan bog‘liq aytimlar ana shular jumlasidandir. Bunday an’anaviy, faol janrlar uzoq ajdodlarning ijodi sifatida yashab kelar ekan, albatta, ularning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq uzviy qatlamlari ko‘zga tashlanadi. Olqish va qarg‘ishlarning so‘z bilan bog‘liq ifodasidan tashqari, ana shunday hayotiy hodisalarga ta’sir doirasi ham o‘ziga xos. Shu ma’noda, bu tipdagi namunalar so‘z sehriga asoslangan janrlar deb yuritiladi. So‘z magik qudratiga asoslangan janrlar xalqning qadimgi e’tiqodiy tasavvurlarini, demonologik qarashlarini nisbatan to‘la aks ettirishi bilan ajralib turadi. Keng ommaviy ijro etiluvchi olqish, duo, tilak bilan bog‘liq ifodalar barcha xalqlarda ijobiy psixologik zavq ulashsa, qarg‘ishlar esa, aksincha, ruhiyatga salbiy ta’sir etuvchi, insonning hayotini izdan chiqarishi ham mumkin bo‘lgan omildir. O‘zbek, turk, qozoq, qoraqalpoq, turkman kabi qardosh xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning janr xususiyati qiyoslanganda umumiylik va o‘ziga xoslik aniqlanadi. Olqish va qarg‘ishlar insonga foyda yoki ziyon keltirganligi tufayli sof amaliy vazifa o‘taydi. Mana shu vazifaning doimiyligi, barqarorligi mazkur janrlarning barhayotligini ta’minlaydi. Bunday davomiylik jarayonida yuz bergan hayotiy o‘zgarishlar, taraqqiyot bosqichlari olqish va qarg‘ishlarda qanday aks

[1]*Aliqulova Hulkar* – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: hulkaraliqulova79@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-8863-3624
Iqtibos uchun: *Aliqulova H.Q.* 2025. "*Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili*". O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik 2: 160-170. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/NGNT5434

etgan. Maqolada, aynan qardosh xalqlar og‘zaki ijodida maxsus ijrochilar tomonidan emas, balki istalgan shaxs tomonidan ijro etiladigan olqish va qarg‘ishlarning lokal xususiyatlari, faollik darajasi, mifopoetik qatlami, milliy koloritni tashuvchanligi, tanlangan so‘zning magik ta’siri, ijro o‘rni va ahamiyati o‘rganilgan, namunalar asosida qiyosiy tipologik jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy folklor, janr xususiyati, qiyosiy tahlil, marosim, olqish, qarg‘ish, magik ta’sir, so‘z sehri, faollik bosqichi.

Kirish

Dunyo xalqlari folklorida alohida o‘ringa ega bo‘lgan olqishlar va qarg‘ishlar qadimiyligi va an’anaviyligi, umumfolklor janri ekanligi bilan diqqatni tortadi. Olqishlar va qarg‘ishlar qadimgi insonlarning so‘z sehriga ishonchi, o‘zga dunyo, ruhlar olami, homiy kultlar bilan bog‘liq mifologik tasavvur tushunchalari, diniy-e’tiqodiy qarashlari asosida kelib chiqqan bo‘lib, xalq ijodkorligining muhim badiiy shakllaridan biri sifatida to hozirgacha yashab kelmoqda. Biron-bir xalqning o‘ziga xos milliy koloritini ochib beruvchi unsurlar sirasiga – duo, olqish va qarg‘ish so‘zlarini ham kiritish mumkin. U asarning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, o‘sha millatning madaniyatini, nutqini, mentalitetini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bunday so‘zlar har bir tilda mavjuddir. So‘z buyuk qudratga ega. Uning ana shu xususiyatini insonlar juda qadimdan ilg‘aganlar. So‘zda sehr, magik kuch bor deb qaragan ibtidoiy odamlar undan goh yaxshi niyatga yo‘g‘rilgan olqishlar aytishda, goh esa aksincha, yomonlik, o‘lim tilash maqsadida qarg‘ish yo‘llash uchun foydalanishgan. Folklorshunos B.Sarimsoqov qarg‘ish va olqishlarnit bir-biriga zid janrlar ekanligi haqida shunday fikr bildiradi: “So‘zning sehr-jodu qudratidan qo‘rqish hamma vaqt so‘zga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish folklor janrlari sostavida bir-biriga mohiyatan tamomila qarama-qarshi bo‘lgan janrlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Olqish va qarg‘ishlar ana shunday bir-biriga zid janrlar sanaladi”[1, 143].

Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘at it-turk” asarida olqish: “...bu janr lug‘aviy jihatdan “olqish”, “maqtash”, “duo qilmoq”, “madhiya aytmoq”, “tabriklamoq” ma’nolarini bildirishi

ta’kidlangan va uning Tangriga maqtovlar, biror qahramon yoki hukmron nomiga olqishlar kabi turlaridan namunalar keltirilgan”, qarg‘ish esa “qarg‘ish qilmoq, la’natlamoq” shaklida keladi [2, 123]. Ko‘rinib turibdiki, so‘zning ikki maqsadda ishlatilishi, uning ta’sir doirasini ham belgilab beradi. Olqish va qarg‘ishlarning so‘z bilan bog‘liq ifodasidan tashqari, ana shunday hayotiy hodisalarga ta’sir doirasi ham o‘ziga xos. Shu ma’noda, bu tipdagi namunalar so‘z sehriga asoslangan janrlar deb yuritiladi. So‘z magik qudratiga asoslangan janrlar xalqning qadimgi e’tiqodiy tasavvurlarini, demonologik qarashlarini nisbatan to‘la aks ettirishi bilan ajralib turadi. Keng ommaviy ijro etiluvchi olqish, duo, tilak bilan bog‘liq ifodalar barcha xalqlarda ijobiy psixologik zavq ulashsa, qarg‘ishlar esa, aksincha, ruhiyatga salbiy ta’sir etuvchi, insonning hayotini izdan chiqarishi ham mumkin bo‘lgan omildir. O‘zbek, turk, qozoq, turkman, ozorbayjon kabi qardosh xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning janr xususiyati qiyoslanganda umumiylik va o‘ziga xosliklar aniqlanadi.

Har bir xalqning adabiy merosi uning dunyoqarashi, maishiy turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Og‘zaki ijod namunalarining taraqqiyot bosqichi ham xalq hayotining o‘zgarishiga, takomillashuviga qarab variantlashib boraveradi. Ammo ularning ota ildizida an’anaviylik, insonning ilk tasavvurlari bilan bog‘liq qarashlar saqlanib qoladi. Shu ma’noda, aksariyat olqish va qarg‘ishlarda mifologik obrazlar yetakchilik qiladi. Mifologik obrazlar qaysi davr, qaysi diniy qarashlar hukmronligi bo‘lmasin, olqish va qarg‘ishlar mazmunini, g‘oyaviy yo‘nalishi va tuzilishini belgilab beradi. Tahlillarda olqish va qarg‘ishlarning obrazlar tizimiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

1.Mifologik olqish va qarg‘ishlar.

2.Real hayotiy olqish va qarg‘ishlar [3, 41-44].

Mifologik qarash va tasavvurlar asosidagi obrazlar ishtirok etgan olqish va qarg‘ishlar uzoq ajdodlar tomonidan allaqachonlar yaratilgan bo‘lsa ham, biroq hozirga qadar ularning mazmun va vazifalarida jiddiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmaydi. Masalan, xalq orasida to‘yda, motamda, yoki biror bir yangi vazifalarni bajarishdan oldin “ota-bobolar ruhi qo‘llasin” degan olqishning aytilish, “arvoh ursin” degan

qarg‘ishlarning mavjudligi buni asoslaydi. Ruhlar haqidagi mifologik qarashlar, ularning yaxshilik qilish haqidagi tasavvurlar xalq o‘rtasida olqish bilan bir qatorda uning butunlay aksi bo‘lmish qarg‘ishlarni ham keltirib chiqaradi. Mifologik obrazlardan xizir, chiltonlar, choryorlar, farishtalar, pari, jin, balo, alvasti, ajal kabilarning xalq qarg‘ishlari tarkibida eng ko‘p uchraydi. Ammo ularning mazmun-mohiyatiga qarab vazifalari nisbatan aniqlanadi. Xizir, chilton, choriyor, farishta kabi obrazlar asosan olqishlar janrida qo‘llansa, jin, alvasti, balo, ajal kabi mifologik obrazlar vazifa tizimiga qarab qarg‘ishlar tarkibida keng qo‘llaniladi. Shu kabi holatlarning turkiy xalqlar olqish va qarg‘ishlarida qanday ifodalanishi, ularning vazifa shakllari qay tarzda aks etishi tadqiq etilsa, kichik janrlarning umumturkiy o‘ziga xos xususiyatlari oydinlashadi.

O‘zbeklarda “olqish”, “qarg‘ish”, “duo”, “duoyiband” leksimalari mavjuda bo‘lsa, turklarda “iyi dilek” (yaxshilik tilash), “dua”, “kötü dilek” (yomonlik tilash), “beddua” birikmasi ishlatilgan. Qozoqlarda “алғыс” (batasöz), “қарғыс” shaklida, qirg‘izlarda “alkış”, “karğamak”, “kargış”, ozorbayjonlarda “alqış”, “qarqış”, turkmanlarda “alkyş-dilegler”, uyg‘urlarda “alkiş: alkış”, “kizgin alkiş: gürültülü alkış”, “gülduras alkiş: gürültülü alkış”, “alkışlar eytmak: övgüler söylemek, övmek”, “ga(r)ġiş”, tatarlarda “alkaş”, “quargış” deb nomlanadigan bu aytimlar real hayotning aniq bir vaziyatiga (aynan ruhiy holat bilan bog‘liq daqiqalar uchun) xizmat qilishi aniq. B.Sarimsoqov ham qarg‘ish va olqishlarni bir-biriga zid janrlar ekanligi haqida shunday fikr bildiradi: “So‘zning sehr-jodu qudratidan qo‘rqish hamma vaqt so‘zga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish folklor janrlari sostavida bir-biriga mohiyatan tamomila qarama-qarshi bo‘lgan janrlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Olqish va qarg‘ishlar ana shunday bir-biriga zid janr-lar sanaladi” [1, 143]. Turk olimi Usmon Jiloji Turkiyada nashr etilgan “Islom ensiklopediyasi”ga yozgan “Duo” maqolasida shunday yozadi: “Bir mavzuda Allohdan so‘raladigan istak va niyatlarni ifoda etadigan “duo” so‘zi “chaqirmoq, murojaat, istamoq, yordam so‘ramoq” ma’nolaridagi “da’vat” va “da’vo” so‘zlari kabi masdardir va “kichikdan ulug‘ga, pastdan yuqoriga yo‘naladigan talab va niyoz” mazmunidagi so‘zdir. Duolarning asosiy maqsadi Allohga arzi hol qilmoqdir” [4, 529]. Shu ma’noda olqish va qarg‘ishlarning tipologik xususiyati ham mifologik

dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Turkiy zabon xalqlarning aksar olqish va qarg‘ishlarida so‘z magiyasi (so‘zning sehrli ta’siri) asosida shakllangan birliklar doim faol ekanligi, yuqoridagi fikrlarni bir oz bo‘lsa-da dalillaydi.

Turkiy xalqlar lingvomadaniyatidagi tilak / olqish / duolarning o‘zini tematik tasnif qilish masalasiga ham filologlar muntazam e’tibor qaratib keladi. Mazkur birliklarni tasnif qilishda, asosan, quyidagi omillar diqqatga olingan: kundalik so‘zlashuv va muomalada, adabiyot va san’atda, urf-odatlarda, muhim marosim va tantanalarda, xursandchilik va tashvishli kunlarda qilinadigan tilak / olqish / duolar [5, 127]. Maishiy hayot tizimining kundalik so‘zlashuvida faol olqish va qarg‘ishlar kutilmaganda ijro etilishi bilan ahamiyatlidir. Insonning kuchli quvonchi yoki iztirobi natijasi o‘laroq, so‘zlarning qarama-qarshi mohiyat kasb etishi har ikki janrning faollik darajasini belgilab beradi. Ijtimoiy hayotda olqishlar ma’lum ma’noda qarg‘ishlardan o‘ziga xosligi bilan ajralib tursa-da (so‘rab olinishi, to‘y marosimlarining bir uzvi bo‘lishi, biron-bir yangi ish yoki yangi natija uchun aytilishi, yoshi kattalarning ijro etishi), ammo so‘zning ta’sir kuchiga qarab umumiylik kasb etadi. Olqishlarning ijro o‘rni, ijro usuli (duo shakli), ijrochisi, ijro ta’siri nisbatan aniqroq, qarg‘ishlar esa kutilmaganda, ziddiyatli voqeliklar tizimida, ijrochilar tanlanmagan holda (maxsus duoyiband qiluvchilardan tashqari), ijro o‘rni tanlanmasdan faollashadi. Har ikki janrning ham umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud ekan, ularning bir-biriga ta’sir xususiyatlari ham yo‘q emas. Ba’zida xalq tilida “O‘zingdek farzanding bo‘lsin”, “O‘zingga o‘xshagan kelin qilgin” kabi ifoda shakli olqish bo‘lgan iboralarni eshitamiz. Ularning tag ma’no tizimida norozilik (qarg‘ish) ifodasi ko‘zga tashlanadi. So‘zning poetik shakli uning vaziyat turi bilan tahlil etilganda, kutilgan mazmun oydinlashadi. Qarg‘ihlarda bunday ifoda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, qarg‘ish xalq og‘zaki ijodida o‘ziga xos o‘rin tutib, u muayyan ijtimoiy-maishiy sabablar orqali yuzaga keladi. Xalqimiz orasida paydo bo‘lgan ba’zi qarg‘ishlarning mohiyati turli davrga oid diniy-axloqiy, badiiy-estetik qarashlar ta’sirida o‘zgarishga uchragan. Masalan, qarg‘ishlarda doimiy mavzuga aylangan o‘lim bilan bog‘liq an’anaviy ifodalarning badiiy evolyutsiyasi natijasida ba’zi bir o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. O‘lim bilan bog‘liq “o‘ligini it-shag‘allar chaqalasin”,

“o‘ligini it yesin”, “sag‘anada qolgin”, “ko‘kini kiysin”, “o‘ligi ko‘chada qolsin”, “yer yutsin” kabi aytimlar tipologik tahlil etilganda davriy o‘zgarishlar ta’sirida mazmun-mohiyatning yangicha qatlamga ko‘chib qolgan holatlari mavjud. Oneskrit baqtriyaliklar urf-odati haqida shunday yozadi: Ularning urf-odatiga ko‘ra, qarigan kishini o‘lmasa ham tirik holda itlarga berilgan [6. 158]. Baqtriyaliklar xonadonida ana maqsadda maxsus itlar saqlangan. Boy badavlat, o‘ziga to‘q girkaniyaliklar ham o‘zlarining oxiratini o‘ylab, avvaldan uyda it boqishgan. Yoki, N.F.Katanovning aniqlashicha, “Tarbagatiy shahri aholisi marhum jasadini ustiga moy qo‘yib maxsus joyga chiqarib qo‘yadilar. Chunki moy quyilgan murda go‘shtini itlar tezda yeb ketisharmish. Itlar jasad go‘shtini qanchalik tez yeyishsa, o‘lgan kishining qarindoshlari shuncha xursand bo‘lisharmish” [7. 45-48].

Dafn marosimlarida itning ishtirok etishi zardo‘shtiylik dini va mifologik qarashlari bilan bog‘liq. “Avesto”da it muqaddas hayvon sifatida ta’riflangan. Zardo‘shtiylik ta’limoticha, bu jonivor yovuz kuchlarning ashaddiy dushmanidir. Shu ma’noda “o‘ligini it-shag‘allar chaqalasin”, “o‘ligini it yesin” kabi aytimlarning tarixiy-genetik asoslari ana shu magik qarashlarga bog‘lanadi. O‘z davrida bu aytimlar marosim tizimida marhumning keyingi hayoti uchun olqish vazifasini o‘tagan bo‘lsa, bugungi kunda qarg‘ish aytimiga aylangan. Bunday mifologik qarashlar olqish va qarg‘ishlarning faollik darajasini ham belgilab beradi. Turklarning “Çigninde mezara gidim” qarg’ishi ayni zamonda olqishni ham anglatadi. Chunki odatda o‘g‘ilga aytiladigan bu qarg‘ishda sening qo‘lingda (yelkasida) qabrga ketaman, aslida o‘ziga qarg‘ish bo‘lsa-da, o‘g‘liga uzoq umr tilash (olqish, duo) ifodasi ko‘rinadi.

Qardosh xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning mavjud variantlari uning so‘z magiyasi bilan bog‘liq xususiyatlarni ham asoslaydi. Olqishlarning mazmun-mohiyati aytilgan so‘zning ta’siri (kuch olish, ruhlanish, xursand bo‘lish, umid qilish, ishonish) yoki qarg‘ishlarning ruhiy ta’siri (lanatlanishdan qo‘rqish, omadsizlikka uchrash, duoyiband bo‘lish kabi) magik jarayonlarga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bu ikki janrning o‘ziga xos xususiyati mifopoetik ijrolarda ko‘rinadi.

Olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tahlilida deyarli barcha turkiy xalqlarda hayot va o‘lim bilan bog‘liq ijrolarning asosida tangriga murojaat shakli ustuvor ekanligini ko‘rish mumkin.

Masalan quyidagicha:

Olqishlar

№	O‘zbeklar	Turklar	Ozorbayjonlar
1	Alloh asrasin	Allah senden razi ola	Allah saxlasin
2	Alloh do‘stu birodardan ayirmasin	Allah altı dosttan ayırmasın	Allah seni nâmert qapısına göndermesin
3	Alloh ikki dunyo saodatini bersin	Allah iki cihanda yüzünü güldüre	Allah taala seni güldürsün
4	Alloh birni o‘rniga ming bersin	Allah birini yerine bin versin	Allah qoluna quwet, süfrene bereket versin
5	Alloh do‘stga zor, dushmanga xor qilmasin	Allah dostunu var düşmanını yok etsin	Allah seni düşmene güldürmesin, düşmene möhtaç elemesin
6	Alloh dardi bedavodan asrasin	Allah dermanı olmayan dert vermesin	Allah-taala başının üstünden eskik ohnasın
7	Alloh tanu joningni salomat qilsin	Allah canına bedenine sağlık versin	Allah canina sağlıq versin
8	Alloh ota-onasi bilan bersin	Allah analı-babalı büyütsün	Allah seni ata-anana çox görmesin
9	Alloh farzand dog‘ini ko‘rsatmasin	Allah evlat acısı göstermesin	Allah balalarını saxlasin
	Alloh nomardga muhtoj etmasin	Allah nâmerde muhtaç etmesin	Allah seni nâmert qapısına göndermesin

Qarg‘ishlar

№	O‘zbeklar	Turklar	Ozorbayjonlar

1	Alloh farzand bermasin	Allah, zürriyet vermiye	Allah sene qotur versin, dırnak vermesin
2	Alloh joningni olsin	Allah, o canın ala	Allah öldürsün seni
3	Alloh joningni olsin, men ko‘ray	Allah, canın ala, acın bize göstere	Allah seni oğuldan yandırsm
4	Alloh qabul etmasin	Allah qabul etmiye	Allah seni peşman elesin
5	Allohdan o‘lim tilayman	Allah sana bir meftirfici vere sana	Allah ömründen kessin
6	Alloh jazo bersin	Allah cezanı vermesin	Allah sene zülm elesin

Umuman olganda olqish va qarg‘ishlarni ma’lum bir millatning urf-odati, an’analari va kundalik hayoti bilan bog‘liqlikda o‘rganishda ularning mazmun-mohiyati – semantikasi muhim hisoblanadi. Tilak va duolar ma’lum bir marosim bilan aloqalantirilganda ularning so‘z repertuarida o‘sha marosimga mos birliklar qo‘llanadi. Homilador ayollar va chaqaloqlar uchun aytiladigan, to‘y-hashamlarda aytiladigan, tabiat hodisalari va maishiy marosimlar bilan bog‘liq, aza va ta’ziyalarda aytiladigan hamda diniy tushunchalar bilan bog‘liq duolarning har biri o‘ziga xos leksik-semantik repertuarga ega. Qarg‘ishlar va olqishlardagi qisqa va diqqatga sazovor iboralar, evfemizmlar, arxaik so‘zning qo‘llanilishi, she’riy til va boshqalar ushbu turdagi asosiy maxsus kodlardir. Ko‘pchilik an’analarda mavjud bo‘lgan metaforaviy qo‘llanishlar ham estetik ijodning markazida turadi. Bu olqishlar va qarg‘ishlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, uning muhim kalitlari hisoblanadi. Har bir xalq o‘z mentaliteti, turmush tarzi, e’tiqod qiluvchi diniga ko‘ra duo, olqish yoki qarg‘ish so‘zlarini yaratadi va qo‘llaydi.

Adabiyotlar

Саримсоқов Б. 1988. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. I жилд. – Тошкент: Фан. – Б. 143.

Кошғарий М. 1961. Девонулуғоти-т-турк. II жилд. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). – Тошкент: Фан, – Б.123.

Қўчқоров Н. 2023. Халқ олқиш ва қарғишларининг тарихийлик принциплари. Ўзбек тили ва адибиёти. – Тошкент. – № 4. 41-44-бетлар.

Osman Cilacı. 1992. "Dua", İslam Ansiklopedisi, C. 9, Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, s. 529.

Жуманазарова Г.У. 2017. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлили): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент. – Б. 127.

Бойназаров Ф. 1991. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент. – Б. 158.

Эшбоева Ф. 1998. Қарғиш ва унинг достон таркибидаги бадиий талқини ("Нурали" достони мисолида). Ўзбек тили ва адабиёти. – № 5. 45-48-бетлар.

Арипов М.А. 2020. Туркча тилак, олқиш ва дуоларнинг функциялари ва хусусияти // XXI аср: фан ва таълим масалалари. – № 3. – Б. 30-39.

COMPARATIVE TYPOLOGICAL ANALYSIS OF APPLAUSE AND CURSING IN THE FOLKLORE OF TURKIC PEOPLES

Hulkar Aliqulova[1]

Abstract

[1]*Aliqulova Hulkar* – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: hulkaraliqulova79@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-8863-3624
For citation: *Aliqulova H.Q.* 2025. "*Comparative typological analysis of applause and cursing in the folklore of Turkic peoples*". Uzbekistan: language and culture. Folklore. Dialektology 2: 160-170.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/NGNT5434

Folklore genres related to the magic of behavior, eyes and words occupy a large place in the oral creativity of Turkic peoples. Kinna, badik, applause, cursing, spells, and other sayings related to various rituals are among these. As long as such traditional, active genres have been living as the creations of distant ancestors, of course, their organic layers related to social life are noticeable. In addition to the verbal expression of applause and cursing, the range of influence on such life events is also unique. In this sense, examples of this type are called genres based on word magic. Genres based on the magical power of words are characterized by a relatively full reflection of the people’s ancient beliefs and demonological views. Expressions related to widely performed applause, prayers, and wishes bring positive psychological pleasure to all nations, but cursing, on the contrary, is a factor that has a negative effect on the psyche and can derail a person’s life. In the folklore of sister nations such as Uzbek, Turkish, Kazakh, Karakalpak, and Turkmen, commonality and uniqueness are determined when the genre features of applause and cursing are compared. Applause and cursing have a purely practical function due to the fact that they bring benefit or harm to a person. The continuity and stability of this task ensures the survival of these genres. How the life changes and stages of development that occurred in the process of such continuity were reflected in applause and cursing. In the article, the local characteristics of applause and cursing performed by any person, not by special performers, in the oral art of the brotherly nations, the level of activity, the mythopoetic layer, the portability of the national color, the magical effect of the chosen word, the performance itself rni and its significance were studied, analyzed comparatively typologically on the basis of samples.

Key words: Turkish folklore, genre feature, comparative analysis, ritual, applause, curse, magical effect, word magic, stage of activity.

References

Саримсоқов Б. 1988. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек

фольклори очерклари. I жилд. – Тошкент: Фан. – Б. 143.

Кошғарий М. 1961. Девонулуғоти-т-турк. II жилд. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). – Тошкент: Фан, – Б.123.

Қўчқоров Н. 2023. Халқ олқиш ва қарғишларининг тарихийлик принциплари. Ўзбек тили ва адибиёти. – Тошкент. – № 4. 41-44-бетлар.

Osman Cilacı. 1992. "Dua", İslam Ansiklopedisi, C. 9, Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, s. 529.

Жуманазарова Г.У. 2017. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлили): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент. – Б. 127.

Бойназаров Ф. 1991. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент. – Б. 158.

Эшбоева Ф. 1998. Қарғиш ва унинг достон таркибидаги бадиий талқини ("Нурали" достони мисолида). Ўзбек тили ва адабиёти. – № 5. 45-48-бетлар.

Арипов М.А. 2020. Туркча тилак, олқиш ва дуоларнинг функциялари ва хусусияти // XXI аср: фан ва таълим масалалари. – № 3. – Б. 30-39.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com